

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MUALLIFLIK HUQUQINI HIMOYA QILISHDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Sharipova Nilufar Axmadjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Email: nilufarsharipova6699@gmail.com

Annotatsiya- Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida mualliflik huquqini himoya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda mualliflik huquqlari borasida yuqori darajadagi yondashuvlar va zamonaviy tizimlar shakllanmoqda. Mazkur tezisda rivojlangan mamlakatlarda mualliflik huquqini himoya qilish sohasidagi zamonaviy tendensiyalar yoritilgan. Muallif raqamli platformalarda mualliflik huquqini ta'minlash bo'yicha ilg'or tajribalarni, xalqaro huquqiy hujjatlarning ahamiyatini, sun'iy intellekt bilan bog'liq huquqiy muammolarni hamda huquqbuzarliklarga nisbatan ko'rilibotgan chora-tadbirlarni tahlil qiladi.

Аннотация- В условиях современной глобализации и цифровых технологий защита авторских прав приобретает особую актуальность. Особенно в развитых странах формируются высокоэффективные подходы и современные системы в области авторского права. В данной тезисной работе освещаются современные тенденции в защите авторских прав в развитых странах. Автор анализирует передовой опыт обеспечения авторских прав на цифровых платформах, значение международных правовых документов, правовые проблемы, связанные с искусственным интеллектом, а также меры, принимаемые в отношении нарушителей авторских прав.

Annotation- In today's world of globalization and digital technologies, the issue of copyright protection has become increasingly relevant. In particular, developed countries are establishing advanced approaches and modern systems for the protection of copyright. This thesis highlights contemporary trends in the protection of copyright in developed

countries. The author analyzes best practices in ensuring copyright on digital platforms, the significance of international legal instruments, legal challenges related to artificial intelligence, and the measures taken against copyright infringements.

Kalit so‘zlar: Mualliflik huquqi, rivojlangan mamlakatlar, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, huquqiy muammolar, xalqaro hujjatlar, intellektual multk.

Ключевые слова: Авторское право, развитые страны цифровые технологии и искусственный интеллект, правовые проблемы, международные документы, интеллектуальная собственность.

Keywords: copyright, developed countries, digital technologies, artificial intelligence, legal challenges, international legal instruments, intellectual property.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda mualliflik huquqi sohasida dolzarb muammolar va yangicha yondashuvlar paydo bo‘lmoqda¹. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda bu soha yuqori darajada tashkil etilgan bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro hamkorlik orqali samarali huquqiy muhit shakllantirilgan.

Raqamli platformalarda mualliflik huquqini avtomatik tarzda aniqlovchi tizimlar keng joriy etilgan. Masalan, YouTube, Spotify, Amazon kabi platformalarda kontentni himoya qiluvchi sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar orqali mualliflik huquqi buzilishi holatlari aniqlanadi va oldi olinadi. Bu tizimlar foydalanuvchilar tomonidan yuklangan fayllarni mualliflik bazalari bilan solishtiradi va huquqbuzarlikni avtomatik aniqlaydi.

Xalqaro tashkilotlar – Jumladan, Jahon intellektual multk tashkiloti (WIPO), Butunjahon savdo tashkiloti (WTO) doirasidagi shartnomalar orqali mualliflik huquqini global miqyosda himoya qilish kuchaymoqda. Bern konvensiyasi va TRIPS bitimi asosida qabul qilingan hujjatlar rivojlangan mamlakatlarning qonunchilik tizimlarida keng aks etgan.

¹ Intellektual multk.Darslik.TDYU 2020

Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar mualliflik huquqiga ega bo‘lishi yoki bo‘lmasligi masalasi keng muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. AQSh va Yevropa Ittifoqi bu borada turlicha yondashuvlarni sinovdan o‘tkazmoqda. Masalan, AQShda AI tomonidan yaratilgan kontent mualliflik huquqi sub’yekti bo‘lolmasligi tan olingan bo‘lsa, Yevropada mualliflik huquqi inson ishtiroki bo‘lgan taqdirdagina beriladi.

Mualliflik huquqlarini buzganlarga nisbatan jazo choralari kuchaymoqda. AQShda mualliflik huquqini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik, katta miqdorda jarimalar, kompensatsiyalar va boshqa choralardan foydalaniladi. Germaniyada esa noqonuniy kontentni tarqatgan shaxslar internet xizmatlaridan vaqtincha chetlashtiriladi.

Rivojlangan mamlakatlardagi tajriba mualliflik huquqini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘un holda himoya qilish imkonini bermoqda. Bunday yondashuvlar O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib, intellektual mulkni himoya qilishda milliy qonunchilikni modernizatsiya qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

“ Fair Use”va “Fair Dealing” tamoyillari. AQShda mualliflik huquqi doirasida “fair use” (adolatli foydalanish) tamoyili joriy etilgan bo‘lib, bu muayyan sharoitlarda muallif ruxsatisiz ham asardan foydalanishga ruxsat beradi (masalan, ilmiy izoh, tanqid, yangilik berish). Bunday yondashuv erkin fikr almashinushi va ta’limni qo’llab-quvvatlaydi. Yevropa davlatlarida esa “fair dealing” deb nomlanuvchi o‘xshash printsip mavjud, biroq u ko‘proq chegaralangan holatlarda qo’llaniladi.

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda mualliflar o‘z asarlarini Creative Commons kabi ochiq litsenziyalar orqali tarqatishni afzal ko‘rmoqda. Bu foydalanuvchilarga asarni belgilangan shartlar asosida erkin nusxalash, tarqatish yoki tahrirlash imkonini beradi. Bu yondashuv ilm-fan, ta’lim va madaniyat sohalarida ijodiy hamkorlikni kuchaytiradi.

Zamonaviy yondashuvlardan biri bu — blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda mualliflik huquqlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va nazorat qilishdir. Masalan, AQSh va Yaponiyada ayrim platformalar asar yaratilgan vaqtini, mualliflik egasini va foydalanish shartlarini blokcheynda qayd etish orqali sudda isbotlashni yengillashtirmoqda.

So‘nggi yillarda metavers (virtual reallik platformalari) rivoji tufayli mualliflik huquqining qo‘llanish sohasi kengaymoqda. Raqamli avatarlar, virtual kiyimlar, 3D kontentlar ham mualliflik huquqi bilan himoyalanmoqda. Meta (sobiq Facebook), Microsoft va Apple kabi kompaniyalar bu borada yangi siyosatlar ishlab chiqmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar mualliflik huquqini himoya qilish faqat qonun bilan emas, balki aholining huquqiy madaniyatini oshirish orqali ham amalga oshiriladi. Maktablarda, universitetlarda va onlayn platformalarda mualliflik huquqi bo‘yicha kurslar tashkil etilgan. Bu esa huquqbazarliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Intellektual multk.Darslik.TDYU 2020
2. Filipova I.A. "Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish". - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. – 179 bet.
3. ”Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonun (20.07.2006)
- 4.<https://www.researchgate.net/publication/366474594>